



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

“BILGA XOQON” ROMANIDA TARIXIY XOTIRA VA TURKIY QAHRAMON XARAKTERI

HISTORICAL MEMORY AND THE CHARACTER OF THE TURKIC HERO IN THE NOVEL “BILGA KHAGAN”

Dilafruz MAHKAMOVA,

TOSHDO‘TAU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZFBF9129

Annotation . *This article analyzes the formation of Turkic heroic characters in modern Uzbek literature through the example of Isajon Sultan’s historical novel Bilga Khagan. The study examines the artistic interpretation of historical figures such as Bilga Khagan, Kul Tigin, Tonyukuk, and Kur Shad, as well as their role in expressing national consciousness and the idea of statehood. The paper also explores the artistic functions of historicism, psychologism, dialogue, nature imagery, and symbolic representations in the novel. Particular attention is paid to the writer’s ability to combine the spirit of ancient Turkic inscriptions with modern artistic thinking.*

Key words: *Turkic hero, historical novel, Bilga Khagan, image, character, national consciousness, historical memory, psychologism, artistic interpretation, statehood.*

Adabiyotshunoslik ilmida “obraz” deganda inson ongida in’ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so‘z vositasida san’atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to‘qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi [Umurov 2004: 32]. “... Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo‘q. Hamma qismlar butunga buysungan, hammasi bitta maqsadga yo‘naltirilgan, hammasi birlikda bitta go‘zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi” [Belinskiy 1977: 101]. So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlarga murojaat kuchayishi natijasida turkiy qahramonlar obrazini qayta tiklash va badiiy talqin etish jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va xalqning ma‘naviy ildizlarini yoritish ehtiyoji ijodkorlarni qadimgi turkiy tarixga murojaat qilishga undadi. Natijada adabiyotda Bilga xoqon, Kul Tigin, To‘nyuquq singari tarixiy siymolar obrazining shakllanishi va talqini alohida yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ldi. Bu obrazlar orqali xalqning davlatchilik tafakkuri, erk va ozodlik haqidagi qarashlari, milliy g‘urur va birlik g‘oyalari badiiy ifoda etildi. Tarixiy obraz yaratishda yozuvchi nafaqat tarixiy faktlarga, balki qahramonning ichki dunyosi, ruhiyati, xarakteri va davr muhitiga ham alohida e‘tibor qaratadi. Obrazning badiiy mukammalligi uning barcha qismlari yagona g‘oyaga xizmat qilishi, xarakter va voqealar o‘rtasidagi uyg‘unlik bilan belgilanadi. Shu jihatdan qaraganda, XX asr va zamonaviy o‘zbek adabiyotida yaratilgan turkiy qahramonlar obrazlari tarixiy shaxsning oddiy tasviri emas, balki millat ruhiyatini ifodalovchi badiiy timsol darajasiga ko‘tarildi. Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani bu boradagi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Asarda Bilga xoqon obrazi shunchaki hukmdor sifatida emas, balki xalq taqdiri uchun mas‘ul bo‘lgan, milliy birlikni saqlashga intilgan, ma‘naviy va siyosiy jihatdan yetuk shaxs sifatida gavdalantiriladi. Yozuvchi obrazni yaratishda qadimgi turkiy bitiklar ruhiga tayangan holda, uni zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada Bilga



xoqon obrazi tarixiy haqiqat va badiiy talqinning mushtarak nuqtasida shakllangan yirik epik qahramonga aylanadi. Romandagi Kul Tigin, To'nyuquq, Ishbara Yamtar, Bulut kabi obrazlar ham turkiy qahramonlik ruhini ochishda muhim o'rin tutadi. Xususan, Ishbara Yamtar obrazida xalqparvarlik, sadoqat va erk uchun kurash g'oyalari yorqin ifodalansa, To'nyuquq obrazida davlat tafakkuri va siyosiy donishmandlik ko'zga tashlanadi. Bu qahramonlarning har biri alohida xarakter xususiyatiga ega bo'lib, ular orqali yozuvchi turkiy xalqning ruhiy olami, hayot tarzi va qadriyatlarini badiiy jihatdan yoritishga erishgan. Shuningdek, romanda qahramonlarning nutqi, ichki kechinmalari va ruhiy holati orqali obrazlarning tabiiyligi ta'minlangan. Bu esa tarixiy shaxslarni afsonaviy qahramon emas, balki murakkab ruhiy dunyoga ega inson sifatida tasvirlash imkonini bergan. Shu tariqa "Bilga xoqon" romanida yaratilgan obrazlar zamonaviy o'zbek adabiyotidagi turkiy qahramonlar obrazining shakllanish va rivojlanish jarayonini yaqqol namoyon etuvchi badiiy hodisa sifatida ahamiyat kasb etadi.

"Agar badiiy obrazni jonli organizm deb faraz qilinadigan boisa, prototip – shu organizmning skeleti, badiiy to'qima – uning eti, estetik ideal esa qoni-joni. Tirik organizmning etini skeletidan, skeletini qoni-jonidan ajratib boim aganidek, badiiy obraz "organizmi"dagi prototip badiiy to'qimadan, badiiy to'qimani estetik idealdan uzib olib bo'lmaydi. Ular birlariga payvandlashib, qo'shib-chatishib ketadi" [Boboyev 1979: 52]. Adabiyotshunoslikdagi "obraz – jonli organizm" haqidagi qarash aynan Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romanida o'z tasdig'ini topadi. Chunki Bilga xoqon obrazi faqat tarixiy faktlar asosida emas, balki ruhiy iztirob, siyosiy tafakkur va estetik ideal uyg'unligida shakllangan.

Asarning "Bilga Xoqon o'tmishi" bobida Bilga xoqonning nasl-nasabi tilga olinadi: "Otasi Eltarish Qutlug' xoqon, onasi El Bilga xotun, o'z oti Mo'g'ulan ekan" [Sultonov 2022: 26]. Bu ma'lumot oddiy genealogik tasvir emas. Yozuvchi shu orqali qahramonning tarixiy ildizini, hukmdorlikka daxldorligini va kelajakdagi siyosiy mavqeini asoslaydi. Bilga xoqonning nasli orqali turkiy davlatchilik an'anasi davomiyligi ko'rsatiladi. Ayniqsa, Eltarish xoqon nomining tilga olinishi Bilga xoqon zimmasidagi tarixiy mas'uliyatni oldindan sezdiradi. Tabg'ach davlati haqidagi tasvirlar esa romandagi siyosiy konfliktning asosini tashkil qiladi. "Qo'y-qo'zisi, yilqisi, oltin-kumushi mo'l, biroq avroqchi ekan" jumlasini orqali yozuvchi tabg'achlarning tashqi boyligi bilan ichki ma'naviy buzilish o'rtasidagi ziddiyatni ochadi. "Yaqin tutganga ko'p kumush berar, yiroq tutganga oz-moz kumush berib og'dirib olar ekan" degan tasvir esa tabg'ach siyosatining mohiyatini ko'rsatadi. Bu yerda kuch bilan emas, manfaat va ayyorlik bilan boshqarish usuli tasvirlangan. Bilga xoqonning keyingi qarashlari aynan mana shu siyosiy muhitda shakllanadi. "Qorovi kichik, bilagi kuchsiz, tutumi bo'sh emish. Kuchsiz kishi o'trikchi bo'ladi-ku?" degan jumlada esa muallif xarakter va siyosat o'rtasidagi bog'liqlikni ochadi. Bu yerda "o'trikchi" so'zi faqat yolg'onchi ma'nosida emas, balki irodasiz, ma'naviy jihatdan zaif inson sifatida qo'llanmoqda. Demak, yozuvchi kuchsizlikni nafaqat jismoniy, balki ruhiy tanazzul belgisi sifatida talqin qiladi. Bilga xoqonning otasi vafotidan keyingi ruhiy holati ham muhim psixologik detal orqali ochiladi: "O'zicha qayg'uda ketibdi, bir so'z demabdi". Ushbu jumlada sukutning badiiy funksiyasi kuchli. Qahramonning ichki iztirobi tashqi harakat bilan emas, jimlik orqali ifodalanmoqda. Bu esa Bilga xoqon xarakteridagi vazminlik va ichki og'riqni kuchaytiradi. Asardagi eng muhim nuqtalardan biri Bilga xoqonning milliy ong uyg'unishi bilan bog'liq. "Yot budun ustimga kelib ulusimga buyruq berib turgaydir. Budunimga ne bo'lmish, qani u?" degan savollar qahramon tafakkuridagi burilish nuqtasidir. Bu oddiy savol emas, balki tarixiy xotiraning uyg'unishi hisoblanadi. Bilga xoqon xalqning nega qullikka tushganini, nega o'zligini yo'qotganini anglashga urinadi. "Bor bo'lsa, nega turumi bunday? Yo'q bo'lsa, qani, qayda o'ligi?" degan fikrlar esa xalqning ruhiy o'limini jismoniy yo'qolishdan ham dahshatliroq deb baholashini ko'rsatadi. Kul Tiginning: "To'rt bulungda yovdan boshqasi ko'rinmaydi" degan gapi romandagi tarixiy muhitni keskinlashtiradi. Bu yerda "to'rt bulung" iborasi orqali turkiy xalqning to'liq qamal holatiga tushgani ifodalanadi. Qahramonlar tashqi bosimni faqat harbiy xavf sifatida emas, balki milliy yo'qolish xavfi sifatida his qilmoqda.

Bilga xoqonning Qapag'an xoqonga murojaati obrazning yetuk siyosiy tafakkurini ko'rsatadi. *"Bizlar o'z yer-suvimizda ochliqda, chig'aylikda yer bag'irlab o'ksib yuraveraylikmi?"* degan jumlada xalqning iqtisodiy va ma'naviy tanazzuli umumlashgan holda ifodalangan. *"Yer bag'irlab yurish"* iborasi qullik va xorlikning badiiy ramziga aylangan. Bilga xoqon esa bunday holatni qabul qilolmaydi. Shu sababli uning xarakterida faol harakatga intilish ustunlik qiladi.

Kur Shad bilan bog'liq epizod esa romanning mafkuraviy qatlamini kuchaytiradi. *"Turkiydan qul bo'lmas! Turkiy bosh egmas!"* degan chaqiriqlar asardagi milliy ozodlik g'oyasining markaziy ifodasidir. Bu fikrlar Bilga xoqonning keyingi siyosiy qarashlari uchun ham asos vazifasini bajaradi. Kur Shad obrazi orqali yozuvchi ozodlik uchun kurashning tarixiy ildizlari qadimdan mavjud bo'lganini ko'rsatadi. *"Bir kuni baribir o'lasiz. Qullikda emas, erkinlikda o'ling!"* degan jumla esa asardagi falsafiy qarashni ifodalaydi. Bu yerda hayotning biologik davomiyligidan ko'ra insonning erkin yashashi muhimroq deb talqin qilinmoqda. Shu sababli romandagi qahramonlar uchun ozodlik oddiy siyosiy tushuncha emas, balki ma'naviy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan. Parchaning yakunida kuchli shamol tasviri ham ramziy ma'no kasb etadi. Tabiat hodisasi voqealar rivojiga ta'sir qiluvchi omil sifatida berilgan bo'lsa-da, u ayni paytda tarixiy beqarorlik va kurash muhitining badiiy ifodasiga ham aylanadi. Kur Shadning mag'lub bo'lishiga qaramay, uning harakati xalq ongida ozodlik ruhini uyg'otuvchi tarixiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Demak, mazkur parchada Bilga xoqon obrazi tarixiy shaxs sifatida emas, balki milliy ong, erk va davlatchilik timsoli sifatida shakllantiriladi. Yozuvchi tarixiy voqealarni quruq bayon qilish bilan cheklanmay, qahramon ruhiyati, ichki tafakkuri va xalq taqdiri bilan bog'liq holda badiiy umumlashtirishga erishgan.

Asarda bosh qahramon xarakteri ham asar maqsadini ifodalashda alohida qiymatga ega.

Xarakterning mazmunini aniqlaydigan ikkita asosiy xususiyati bor: Birinchisi, bu bir shaxsni ikkinchi bir shaxsdan ajratib turadigan axloqiy va psixologik belgilar majmuasidan iboratdir. Hayotda shunday kishilarni uchratish mumkin: qilayotgan bir ishiga hamohang qilib biror harakatni odat qilib olgan bo'ladi: gapirayotganda burnining uchini qashib qo'yadi yo o'ylayotganda barmoqlari bilan sochini taraydi va hokazo. Psixologik jihatdan esa har bir shaxsning biror xususiyati bo'rtgan bo'ladi: o'jar yo tajang, og'ir yo yengil, kamgap yo ko'p gapiradigan va hokazo. Psixika xususiyatiga nisbatan tabiiy xususiyatga yaqin turadigan bunday belgilar yozuvchi uchun ko'proq obrazni individuallashtirish uchun zarur bo'ladi. Ikkinchisi, bu individual belgilarni ham o'z ichiga olgan holda ma'lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo'lgan, ijtimoiy ma'no kasb qilgan shaxs iroda yo'nalishi va bu iroda yo'nalishining asardagi badiiy ifodasidan iboratdir. Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g'oyaviy negizini ta'min qiladi. Busiz yozuvchi yaratgan xarakter badiiy va estetik qiymatga ega bo'lmaydi» [Qo'shjonov 1965: 6]

Isajon Sulton romanida Bilga xoqon obrazi oddiy tarixiy shaxs sifatida emas, balki milliy ongni uyg'otuvchi, parokanda holga kelgan xalqni ruhiy jihatdan tiklashga intilgan yetakchi xarakterga ega obraz sifatida tasvirlanadi. Asardagi voqealar tizimi, ayniqsa, Bilga xoqonning budun oldidagi murojaatlari orqali turkiy xalqning ichki tanazzuli, qullik ruhiyati hamda ozodlikka bo'lgan ehtiyoji ochib beriladi. Yozuvchi qahramon nutqidan foydalanib, xalqning ruhiy inqirozini va shu inqirozdan chiqish yo'lidagi kurashni ta'sirchan ifodalaydi. Asarda avvalo tarixiy xotira va milliy o'zlik masalasi markazga chiqariladi. Bilga xoqonning: *"Bu budun ulug' edi, o'ksik bo'ldi"*, degan murojaati xalqning avvalgi qudrati bilan hozirgi ayanchli ahvoli o'rtasidagi keskin tafovutni ko'rsatadi. *"Ko'ksi tog', alp edi, boshi egik bo'ldi"* jumlasini orqali xalqning nafaqat moddiy jihatdan, balki ma'naviy tomondan ham sindirilgani ifodalanadi. Yozuvchi xalqning tanazzul sababini tashqi bosqindan ko'ra ko'proq ichki bo'linish, loqaydlik va o'zaro mehr-oqibatning yo'qolishi bilan bog'laydi. Bilga xoqonning: *"Bir-birini ko'tarish o'rniga bir-birini ezib-yanchdi"*, degan fikri shu jihatdan muhimdir. Bu yerda ijtimoiy parchalanish xalqni zaiflashtirgan asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Bilga xoqon nutqining kuchi uning xalq ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. Xoqon xalqni ayblash bilan cheklanmaydi, balki ularni

uyg'otishga harakat qiladi. *"Sen botir o'g'li eding, alp o'g'li eding"* degan murojaat orqali u budunga uning tarixiy ildizi va ajdodlar qudratini eslatadi. Bu usul qahramon nutqidagi ruhiy ta'sir vositasidir. Xalqning o'zini unutgan holati bilan ajdodlar sha'ni qarama-qarshi qo'yiladi. Natijada nutq oddiy murojaat emas, balki xalqni ruhiy jihatdan tiklash vositasiga aylanadi.

Asarda vatan va ozodlik tushunchasi ham yuqori ma'naviy qadriyat sifatida tasvirlanadi. *"Qullikda emas, erkinlikda o'ling"*, degan chaqiriq turkiy xalq tafakkuridagi erk tushunchasining badiiy ifodasidir. Kur Shad va qirq yigit voqeasi orqali yozuvchi ozodlik uchun kurash g'oyasini tarixiy misol bilan mustahkamlaydi. Uch ming chin askariga qarshi qirq turkiy yigitning jangga kirishi son jihatdan emas, ruhiy qudrat jihatdan talqin qilinadi. Bu sahnalarda mardlik biologik kuch emas, ma'naviy qat'iyat sifatida ko'rsatiladi. Kur Shad obrazi orqali milliy g'urur va erkinlik uchun jon fido qilish g'oyasi ulug'lanadi.

Yozuvchi ayol obrazlarini ham xalq ruhiyatining ajralmas qismi sifatida tasvirlaydi. Bilga xoqonning ayollarga qarata aytgan: *"Qo'rqoq er tuzukmi yo botir er?"* degan savoli jamiyatdagi umumiy ruhiy muhitni aniqlashga xizmat qiladi. Oqartsoch ena javobida: *"Men o'g'illarimni barini alp qilib tuqqanman"*, deydi. Ushbu epizod orqali turkiy ayol obrazi nafaqat ona, balki jasorat va or-nomus tarbiyachisi sifatida gavdalanadi. Ena nutqida qo'rqqoqlik eng katta uyat sifatida talqin qilinadi. Bu esa xalq ma'naviyatida mardlik asosiy axloqiy mezon bo'lganini ko'rsatadi.

Romandagi tabiat tasvirlari ham qahramonlar ruhiyati bilan uyg'un holda beriladi. Kuchli shamol, qorli tog'lar, tumanli yo'llar xalq boshiga tushgan og'ir sinovlarning ramziy ifodasidir. Masalan, Kur Shad qo'zg'oloni arafasida kuchli shamol esishi voqealarning keskinlashuvini bildirsa, Bilga xoqon Tangriga murojaat qilganida qor yog'ishi poklanish va umid timsoli sifatida talqin qilinadi. Demak, tabiat hodisalari asarda oddiy fon emas, balki ruhiy holatni kuchaytiruvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Asarda dialog va murojaatlar alohida badiiy ahamiyat kasb etadi. Bilga xoqonning xalq bilan ochiq muloqotga kirishi uning yetakchi sifatidagi qiyofasini ochadi. U buyruq beruvchi hukmdor emas, balki xalq dardini yuragidan o'tkazgan yo'lboshchi sifatida tasvirlanadi. Shu sababli uning nutqi xalq qalbiga ta'sir qiladi. *"O'lsang boshingni tik tutib o'l, qolsang ko'ksingni kerib yasha"* degan chaqiriq xalqning ruhiy holatini o'zgartiradi va ular orasida birlik kayfiyatini uyg'otadi. Budunning *"Yasha! Yasha!"* deb javob qaytarishi xalq ruhiyatidagi burilish nuqtasini bildiradi.

Roman kompozitsiyasida tarixiy voqealar bilan ruhiy tasvir uyg'un holda berilgan. Yozuvchi toshbitiklardagi tarixiy ma'lumotlarni badiiy tafakkur orqali qayta ishlab, ularni insoniy kechinmalar bilan boyitadi. Shu bois asarda tarixiylik bilan psixologik tasvir bir-birini to'ldirib turadi. Bilga xoqon obrazi orqali yozuvchi turkiy xalqning faqat siyosiy tarixini emas, balki uning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, milliy g'ururi va ozodlikka intilishini ham yoritishga muvaffaq bo'lgan.

Xulosa. Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani zamonaviy o‘zbek adabiyotida turkiy qahramonlar obrazini yaratish borasidagi muhim badiiy hodisalardan biri hisoblanadi. Asarda tarixiy shaxslar oddiy voqea ishtirokchisi sifatida emas, balki milliy ong, erk va davlatchilik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan murakkab xarakterlar sifatida tasvirlangan. Yozuvchi qadimgi turkiy bitiklar mazmunini zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, tarixiylik va psixologik tasvirning yaxlit tizimini yaratishga erishgan. Bilga xoqon obrazi orqali xalqning ichki ruhiyati, ozodlikka intilishi va tarixiy xotirasi ochib beriladi. Roman tarkibidagi dialoglar, murojaatlar, ramziy tabiat tasvirlari hamda xalqona nutq unsurlari obrazlarning tabiiy va ta’sirchan chiqishini ta’minlagan. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy roman, balki turkiy xalqlarning ma’naviy o‘zligini badiiy anglashga xizmat qiluvchi muhim adabiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton I. Bilga xoqon. – Toshkent: Factor Books, 2022.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T., 2004. – 32 b.
3. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. – T., 1977. – 101 b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi, 1979. 52-53 b.
5. Qo‘shjonov M. Oybek mahorati. – Toshkent, 1965. 5-6 b.
6. Mahmudov N. O‘rxun-Enasoy obidalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
7. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
8. Qo‘shjonov M. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
9. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent, 1983.
10. To‘xliyev B. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
11. Bertels Y. E. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1971.
12. Stebleva I. V. Qadimgi turkiy adabiyot va O‘rxun yodnomalari. – M.: Nauka, 1965.
13. Valixojayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Samarqand, 2002.
14. Jabborov N. Badiiy tafakkur asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.